

PAPER

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING O'QUVCHILARNI BAHOLASHGA OID KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Boymirzayeva Farhidjon Rahmatjon o'g'li¹, *

¹Oziq-ovqat texnologiyasi va muxandisligi xalqaro instituti o'qituvchisi

* farhodjonboymirzayev@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarni baholashga oid ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish muammolari hamda ularni hal etish metodikasi yoritilgan. So'rovnomalar, suhbat va kuzatuv usullari orqali mavjud holat tahlil qilindi, taklif etilgan metodikaning samaradorligi amaliyot asosida isbotlandi. Olingan natijalar baholashning zamonaviy yondashuvlarini talabalarga o'rgatish orqali ularning kasbiy kompetentligini oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

Key words:

bo'lajak o'qituvchi, baholash ko'nikmasi, metodika, formatif baholash, kompetensiya, amaliyot, refleksiya

Kirish

Ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lgan baholash, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, ularni rivojlantirish hamda ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Baholash orqali o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi, bu esa o'qituvchiga mos pedagogik-psixologik metodlarni tanlash imkonini beradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida baholashning asosiy mezonlari sifatida bilimning chuqurligi, o'quv materialini o'zlashtirish tezligi, assimilyatsiya qilish kuchi va aniqligi kabi ko'rsatkichlar belgilangan. Bu mezonlar o'quvchilarning bilimlarini miqdoriy va sifat jihatdan baholashga xizmat qiladi. Shuningdek, baholash o'quvchilarning faolligini kuzatish, o'sish va pasayishlarni qayd etish, shunga ko'ra ularni rag'batlantirish yoki yordam ko'rsatish imkonini beradi. Bu funksiyalarsiz ta'lim jarayonini sifatli tashkil qilish imkonsiz.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda baholash ko'nikmalarini shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar baholashning nazariy asoslarini o'rganish bilan birga, amaliyotda ham bu ko'nikmalarni mustahkamlashlari zarur. Bu esa ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatida samarali baholash tizimini yo'lga qo'yishlariga yordam beradi.

Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarni baholashga oid ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, baholashning zamonaviy yondashuvlari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri o'rganiladi.

Adabiyotlar tahlili

Bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarga baho qo'yish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining asosiy maqsadi o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini oshirish va samarali ta'lim berish jarayonini ta'minlashdir. Bu masala bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarni tahlil qilish, metodikaning samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan asosiy tamoyillar va yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi.

O'quvchilarga baho qo'yishda innovatsion metodlardan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar mavjud. Popham innovatsion baholash usullarini joriy etishda o'qituvchilarga sifatli baholash vositalarini tanlashda yordam berishini ko'rsatadi. Yangi texnologiyalar va onlayn baholash platformalari, masalan, Moodle va Google Classroom, o'qituvchilarga o'quvchilarni baholashda samarali vositalar yaratish imkonini beradip[1]. Shuningdek, Anderson va Krathwohl tomonidan ishlab chiqilgan yangi

baholash modellari o'quvchilarning boshqaruv qobiliyatlarini, metakognitiv va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi[2].

O'z-o'zini baholash o'quvchilarning o'z rivojlanishini va o'zlarini baholash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Nicol va Macfarlane-Dick o'z-o'zini baholashning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini ta'kidlab, o'quvchilarning baholash jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish ularning o'z-o'zini anglashiga va o'z maqsadlarini aniqlashga yordam berishini bildirganlar. Bu metodika bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda, o'quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirish muhim ahamiyatga ega[3].

Bo'lajak o'qituvchilarning baholash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, ta'lim tizimidagi samarali baholash metodlari va ularning yuksaltirilishiga oid fikrlarni shakllantirishga imkon beradi. Innovatsion baholash metodlaridan foydalanish, o'z-o'zini baholashning ahamiyatini oshirish, va baholashda aniqlik va adolatni saqlash bo'yicha tavsiyalar o'qituvchilarni ta'lim tizimida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarni baholashga oid ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va uni amaliyotda sinovdan o'tkazish maqsad qilingan. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

Nazariy tahlil: Baholash nazariyasi, pedagogik o'lchovlar va testologiya sohasidagi mavjud adabiyotlar o'rganildi. Xususan, Jalilov K. tomonidan yozilgan "Baholash nazariyasi asoslari" asarida baholashning asosiy tushunchalari, tamoyillari va qonuniyatlari bayon etilgan. Zamonaviy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida baholashning integrallashuvi muhim omil hisoblanadi.

Empirik tadqiqot: Pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan 4-kurs talabalari (n=35) o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma orqali talabalar baholashga oid nazariy bilimlari, baholash mezonlaridan foydalanish tajribalari va qiyinchiliklari aniqlashga harakat qilindi. So'rovnoma natijalari talabalar baholash aksariyati faqat an'anaviy (ballik) baholash usullarini bilishini ko'rsatdi.

Yarim tuzilgan suhbat: 5 nafar tajribali ustoz-o'qituvchilar bilan suhbatlar o'tkazildi. Suhbatlarda hozirgi kundagi baholash jarayonida duch kelinayotgan muammolar, xususan, formatif baholashning to'liq joriy etilmagani, individual yondashuvdagi baholashga bo'lgan ehtiyojlar haqida fikrlar olindi.

Kuzatuv: Talabalar amaliyot jarayonida sinf darslarida baholash uslublarini qanday qo'llayotgani kuzatildi. Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar baholash ko'pchiligi yozma baholash uslublaridan ko'ra, og'zaki baholashni afzal ko'rmoqda, biroq bu baholashda aniq mezonlarga tayanish yetarli darajada emas.

Tadqiqot davomida bo'lajak o'qituvchilar uchun quyidagi bosqichlarda amalga oshiriluvchi metodika ishlab chiqildi:

- Nazariy bilimlarni mustahkamlash: Talabalarga baholashning zamonaviy yondashuvlari, formatif va summativ baholash, rubrikalar tuzish, reflektiv baholash kabi mavzular bo'yicha bilimlar berildi.

- Amaliy mashg'ulotlar: Talabalar turli baholash vositalarini ishlab chiqish, dars davomida baholash usullarini qo'llash, natijalarni tahlil qilish bo'yicha topshiriqlarni bajardilar. Mashg'ulotlar refleksiya asosida olib borildi.

- Refleksiya va tahlil: Har bir amaliy topshiriqdan so'ng talabalar baholash jarayonini tahlil qilishdi, muammolarni aniqlashdi va takliflar berdilar.

Natijalar

Ushbu tadqiqot doirasida bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarni baholashga oid ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar amaliyotga joriy etildi va ularning samaradorligi baholandi. O'rganilgan tajriba asosida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

Eksperimental guruhga kiruvchi bo'lajak o'qituvchilar maxsus trening va mashg'ulotlardan so'ng, baholash mezonlarini to'g'ri qo'llash, adolatli baho qo'yish va o'z-o'zini baholashga oid topshiriqlarni ishlab chiqish bo'yicha yuqori natijalarni ko'rsatdi.

Tajriba davomida o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar bo'lajak o'qituvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlab, ularni real o'quv muhitida qo'llashga tayyorlagani kuzatildi. Baholash shakllari (diagnostik, formatif va summativ baholash) ustida ishlash orqali ularning didaktik kompetensiyalari sezilarli darajada rivojlandi.

Baholashning interaktiv usullari, xususan, rubrikalar, reyting tizimlari, "peer-assessment" va "self-assessment" modellaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarga nisbatan shaffof va ishonchli baho qo'yish ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori natija berdi. Ishtirokchilarning 85% dan ortig'i bu usullarni samarali deb topdi.

Baholash mezonlarini ishlab chiqishda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlagan o'qituvchilar o'zlarining kasbiy qiziqishlari va motivatsiyalarining ortganini ta'kidladi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchining baholash jarayonidagi roli va mas'uliyatini chuqurroq anglashiga olib keldi.

Takliflar

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarni baholashga oid ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Baholash metodikasini o'qituvchilar tayyorlov dasturlariga integratsiya qilish: Oliy pedagogik ta'lim muassasalari o'quv rejalari va dasturlariga "Baholashning zamonaviy metodlari" yo'nalishida alohida modul kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Bu modulda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar ham berilishi kerak.

2. Treninglar va maxsus seminarlar tashkil etish: Baholashning zamonaviy va innovatsion usullarini (rubrikalar, elektron baholash vositalari, o'z-o'zini va o'zaro baholash) bo'lajak o'qituvchilarga chuqur o'rgatish uchun muntazam trening va seminarlar tashkil etilishi lozim.

3. Baholash bo'yicha metodik qo'llanmalar va multimediya resurslarini ishlab chiqish: Talabalar uchun baholashga oid tushunchalarni soddalashtirgan holda, vizual vositalar, video darsliklar, interaktiv topshiriqlar asosida metodik qo'llanmalar yaratish ularning mustaqil o'rganish faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi.

4. Baholash jarayonida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish: Google Forms, Kahoot, Quizizz kabi interaktiv platformalardan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning baholashdagi ishonchlilik, tezkorlik va shaffoflikni oshirishiga xizmat qiladi.

5. Talabalar baholash o'z-o'zini baholash ko'nikmasini rivojlantirish: Darslarda refleksiya va "self-assessment" komponentlarini tatbiq etish orqali talabalar baholash o'z faoliyatini tahlil qilish, o'z ustida ishlashga intilishi kuchayadi.

6. O'qituvchilarning baholashdagi sub'ektivligini kamaytirish bo'yicha treninglar o'tkazish: O'quvchilarga baho qo'yishda shaffoflik, mezonlarga sodiqlik va adolat mezonlarini chuqur singdirish bo'yicha maxsus treninglar yo'lga qo'yilishi zarur.

7. Amaliyot davrida baholash bo'yicha monitoring tizimini joriy etish: Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik amaliyot vaqtida o'quvchilarni baholash bo'yicha faoliyatlarini maxsus baholash

varaqlari asosida kuzatish va tahlil qilish tizimi ishlab chiqilishi kerak. Bu o'qituvchi nomzodlarning real sharoitdagi ko'nikmalarini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Popham, W. J. (2009). Classroom assessment: What teachers need to know. Pearson.
2. Anderson, L. W., Krathwohl, D. R. (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. Longman.
3. Nicol, D. J., Macfarlane-Dick, D. (2006). Formative assessment and self-regulated learning: A model and seven principles of good feedback practice. *Studies in Higher Education*, 31(2), 199–218.
4. Tursunova E. G., Boymirzayev F. R. PARALLEL TIP O 'ZGARISH CHIZIG 'IGA EGA ARALASH TENGLAMA UCHUN INTEGRAL ULASH SHARTLI CHEGARAVIY MASALA //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 15. – C. 237–243.
5. Boymirzayev F. R. PARALLEL TIP O 'ZGARISH CHIZIG 'IGA EGA PARABOLIK-GIPERBOLIK TIPDAGI TENGLAMA UCHUN INTEGRAL ULASH SHARTLI CHEGARAVIY MASALA //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 19. – C. 715–727.
6. Raxmatjon o'g'li B. F. ARALASH TENGLAMA UCHUN INTEGRAL ULASH SHARTLI CHEGARAVIY MASALA //ISSN 2181-4120 VOLUME 1, ISSUE 32 NOVEMBER 2023. – 2023. – C. 123.
7. Raxmatjon o'g'li B. F. O 'ZGARISH CHIZIG 'IGA EGA PARABOLIK-GIPERBOLIK TIPDAGI TENGLAMA UCHUN INTEGRAL ULASH SHARTLI CHEGARAVIY MASALA //IQRO INDEXING. – 2024. – T. 8. – №. 1.
8. Raxmatjon o'g'li B. F. KASR TARTIBLI OPERATORLAR BOSHLANG 'ICH TUSHUNCHALAR VA ABEL INTEGRAL TENGLAMASI YECHIMLARI: Farg 'ona Davlat Universiteti "Matematika" kafedrasi, PhD, dotsent, Xonqulov Ulug 'bek Xursanaliyevich taqrizi ostida //IQRO INDEXING. – 2024. – T. 9. – №. 1. – C. 289–295.
9. Боймирзаев Ф. Р. РЕШЕНИЕ ИНТЕГРАЛЬНЫХ УРАВНЕНИЙ АБЕЛЯ С ПОМОЩЬЮ ДРОБНЫХ ОПЕРАТОРОВ //Экономика и социум. – 2024. – №. 5-1 (120). – C. 1145–1150.
10. Boymirzayev F. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MATEMATIKANI KASBIY YO'NALTIRILGANLIK ASOSIDA O'QITISHNING AFZALLIKLARI //Nordicpress. – 2024. – 5. – №. 0005.
11. Боймирзаев Ф. Р. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MATEMATIKANI KASBIY YO'NALTIRILGANLIK ASOSIDA O'QITISH METODIKASI //Экономика и социум. – 2024. – №. 11-1 (126). – C. 92–97.
12. Baxtiyor o'g'li K. M. TIPI BUZILADIGAN GIPERBOLA-PARABOLIK TENGLAMA UCHUN TO 'G 'RI VA TESKARI MASALANING KORREKLIGI HAQIDA: VI Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Fizika-matematika fanlari doktori SZ Djamalov taqrizi ostida //IQRO INDEXING. – 2024. – T. 8. – №. 2 (2). – C. 216–224.
13. Камолдинов М. О КОРРЕКТНОСТИ ДВУХТОЧЕЧНОЙ ОБРАТНОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ТЕПЛА В ТРЕХМЕРНОМ ПРОСТРАНСТВЕ //ИКРО журнал. – 2024. – Т. 8. – №. 1.